

ERTAK JANRI VA UNDAGI TIL IMKONIYATLARI

Hamid Bozorov Xo‘Shmurodovich.

Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD).

Annotatsiya. Bugungi kunda tilshunoslik tarmoqlarining oldida turgan muhim vazifalardan biri til va madaniyatning kesishidan hosil bo‘lgan lingvomadaniyatshunoslikning o‘ziga xos jihatlarini tadqiq qilishdan, ilmiy xulosalar chiqarishdan iborat. Mana shunday tadqiqot ishlarini amalga oshirishda xalq og‘zaki ijodiga murojaat qilish katta samara beradi. Ushbu maqolada ham xalq og‘zaki ijodining ommabop janrlaridan biri ertaklarning til imkoniyatlari, lingvomadaniy jihatlarni ochib berishdagi o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: folklor, ertak, ertak janri, dealektizm, tarixiy leksika, realiya, ekzotizm, stereotipik matn.

Abstract. Today, one of the important tasks facing the branches of linguistics is to research the specific aspects of linguistics and culture, which are formed by the intersection of language and culture, and to draw scientific conclusions. In the implementation of such research works, it is very effective to turn to folklore. In this article, one of the popular genres of folklore, fairy tales, is discussed about the language possibilities, the role of revealing linguistic and cultural aspects.

Key words: folklore, fairy tale, fairy tale genre, dealectism, historical lexicon, reality, exoticism, stereotypical text.

Kirish. Har bir xalqning o‘y-xayoli, yashash tarzi, o‘ziga xos milli madaniyati, mentaliteti, urf-odat va an‘analarini tarixiy ildizlarini ifodalay olish imkoniga ega folklor janrlariga murojaat qilishga undamoqda. O‘tgan asrda G‘arb tilshunoslarning e‘tiborini tortgan lingvofolkloristika XXI asrning ilk yillaridanoq o‘zbek tilshunoslarining ham diqqatini tortib kelmoqda. Folklor janrlari ichida

ertak janri til imkoniyatlariga boyligi, lingvomadaniy jihatlarni o'ziga jamlaganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Shu o'rinda o'zbek ertakchiligi tarixi haqida to'xtalib o'tsak, maqsadli bo'ladi. O'zbek ertakchiligi ham uzoq tarixga ega. "Dede qo'rqut" kitobidan buyon to XX asrning boshigacha vujudga kelgan barcha adabiy va badiiy obidalarida, turli ko'rinishda o'zbek xalqining qadimiy ertakchiligi, dostonchiligi, qissalari, afsonalari o'z izlarini qoldirgan. Janriy xususiyatiga ko'ra ertaklar adabiyotlarda quyidagicha bayon etiladi: "Ertak epik turga mansub qadimiy janrlardan biri bo'lib, xalq orasida g'oyat keng tarqalganligi, asrlar davomida shakllangan milliy-madaniy qadriyatlar, xalqning turmush-tarzi, an'analari va urf-odatlarini o'ziga xos tarzda epik talqin qiladigan, asosan, professional ijrochilar – ertakchilar tomonidan nasriy usulda, og'zaki tarzda hikoya etish orqali ommalashishi, yaxlit poetik tizim sifatida shakllanganligi, o'ziga xos badiiy struktura va motivlar tarkibiga egaligi, hayotiy voqelikni xayoliy uydirma, fantastik talqin orqali ifoda etishi bilan xarakterlanadi"¹.

Tadqiqot metodologiyasi. Turkiy xalqlar folklorida ertak dastlabki adabiy janrlaridan biri ekanligi ma'lum. Ertak atamasiga O'TILda quyidagicha izoh beriladi: "Ertak – xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan, sehrli-sarguzasht va maishiy mazmundagi epik badiiy asardir" [O'TIL.V.52].

"Ertak atamasi qadimgi turkiylar lahjasida *"hazillashmoq"*, *"so'zlamog"*, *"hikoya qilmoq"*, *"kuylamoq"* ma'nolarida qo'llanilgan va muayyan darajada omonimik mohiyat kasb etgan *"ar//yer//ir//or"* arxaik o'zak-leksemasiga «-ta» yasovchi qo'shimchasini qo'shish orqali fe'lning buyruq maylidagi shakli – *"biror narsani hikoya qil"*, *"muayyan voqeani so'zlab ber"* ma'nosidagi *"arta//yerta//irta"* fe'li hosil qilingan. Ana shu leksemaga proturkiylar tilidagi harakat nomi yasovchi "-q // -k" affiksini qo'shish natijasida xayoliy uydirma va fantastik tasvir asosiga qurilgan folklor janri nomini bildiruvchi *"ertak"* atamasi yuzaga kelgan"². O'zbek tilining etimologik lug'atida qadimgi turkiy tildagi "o't-",

¹ Mirzayev T. va boshqalar. O'zbek folklori. Darslik. – Toshkent: 2020. – B. 141.

² Mirzayev T. va boshqalar. O'zbek folklori. Darslik. – Toshkent: 2020. – B. 141.

“kech-” ma’nosini anglatgan ert- fe’lidan – (ä)k qo’shimchasi bilan (ert+ äk=ertäk) yasalganligi hamda “o’tmish”, “kechmish”³ ma’nosini anglatganligi qayd etiladi.

M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida bu atama “*etuk*” tarzida qayd etilgan: “Этүк – hikoya, ertak; biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham bu so‘z qo‘llanadi. Asli bir narsani hikoya qilishdan olingan”⁴. Bu atama “*ertak*”, “*ertaki*”, “*irtaki*” shaklida turkiy xalqlarda faol qo‘llaniladi. Jumladan, o‘zbeklar istiqomat qiladigan barcha hududlarda keng tarqalgan bu atama xalq og‘zaki badiiy ijodining to‘qima va xayoliy uydirmaga asoslangan, sehrli sarguzasht, fantastik talqin va maishiy mazmundagi epik turga mansub asar ma’nosida qo‘llaniladi.

O‘zbekiston hududida ertak janrining syujet birligini saqlagan holda aynan shu ma’no (ertak ma’nosi)ni ifodalovchi bir qancha terminlar ham mavjud. Toshkent va uning atrofidagi hududlarda ertak so‘zi o‘rnida “cho‘pchak” so‘zi qo‘llanib kelingan. “Cho‘pchak” atamasi fonetik o‘zgarishlarga uchragan holda boshqa turkiy xalqlar tilida ham ishlatiladi. Masalan, oltoy tilida ertak ma’nosini anglatuvchi bu atama, asosan, “chörchök” (ya’ni “cho‘rchək”) so‘zi “afsona”, “ertak”, “masal” kabi ma’nolarini ifodalasa, “*chörchöktö*” fe’li “ertak aytmoq” ma’nosini bildiradi⁵. Samarqand va Farg‘ona vodiysining ayrim joylarida, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida “matal”, Buxoro va Navoiy viloyatlari va shu kabi ayrim “ikki tilli (o‘zbek va tojik tillarida) so‘zlashuvchi aholi o‘rtasida “shuk” yoki “ushuk”⁶, Xorazm viloyati aholisi shevasida “vorsoqi” so‘zi “ertak” ma’nosida ishlatiladi⁷. Ertak terminining yuqorida ta’kidlangan: matal, cho‘pchak, vorsoqi, ushuk ko‘rinishlaridan tashqari xalqimiz orasida *o‘tirik*, *tatal* kabi terminlar ham uchraydi.

³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. I жилд. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 469.

⁴ Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит-турк. 1-том. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 98.

⁵ Mirzayev T. va boshqalar. Ko‘rsatilgan manba:– B. 141

⁶ Абдурахимова Д.А. Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни ахлоқий руҳда тарбиялашда халқ эртақларидан фойдаланиш. Пед.фан.номз...дисс. – Тошкент, 1998. – Б. 11.

⁷ Mirzayev T. va boshqalar. Ko‘rsatilgan manba: – B. 141.

Alisher Navoiy asarlarida bu soʻz “choʻrchak” shaklida “afsona, ertak” maʼnolarda qoʻllanilgan. Buni folklorshunos olim O.Madayev shunday izohlaydi:

Habibim husni vasfin uyla muhlik anglakim boʻlgʻay,

Qoshinda qissai Yusuf bir uyqu kelturur choʻpchak.

(Baytdagi “choʻpchak” “Navodir ush-shabob”ning 1959-yilgi nashrida “choʻrchak” shaklida yozilgan). Baytdagi “uyqu” soʻziga eʼtibor bering. Maʼlum boʻladiki, oqshom payti bolalarni uxlatishda ertakning sehrli taʼsir kuchidan bugungi kunda foydalanar ekanmiz, bu anʼana ham bejiz paydo boʻlmaganini qayd etamiz⁸.

Folklorshunos olim, prof. D.Oʻrayeva ertak terminining genezisi haqida fikr bildirar ekan, ushbu terminning davrlar oʻtishi bilan tilda boʻladigan oʻzgarishlarni inobatga olib, “ertak” atamasini yasama soʻz sifatida baholaydi. Olima fikrini quyidagicha izohlaydi: ertak soʻzi “er” aniqrogʻi, qadimgi turkcha “qoʻshiq” maʼnosini ifodalovchi “ir” (“yir”, “jir”) soʻziga “-tak” yoki “-tek” qoʻshimchasini qoʻshilishidan hosil boʻlgan”. Bunda olim ertaklarning qoʻshiqqa oʻxshash bir necha xususiyatlarini keltirib oʻtadi: ertaklar qoʻshiq kabi sajli boshlanmalarga ega hisoblanadi; ayrim ertaklar syujetini qoʻshiqlarsiz tasavvur etib boʻlmaydi (masalan, “Yoriltosh”, “Musicha”); ertakda voqealar oʻzaro bogʻlanishga xizmat qiladigan “shohning qahri keldi, ilonday zahri keldi”, “oy desa – ogʻzi bor, kun desa – koʻzi bor, shirindan shirin soʻzi bor”, “yoʻl yuribdi, yoʻl yursa ham moʻl yuribdi...” kabi qoliplashgan⁹ birliklar mavjudligi bilan fikrlarini dalillaydi.

S.Roʻzimboyev va H.Roʻzmetovlar “Folklor atamaları qisqacha izohli lugʻati”da: “Ertak terminining maʼnosiga qaraydigan boʻlsak, u “erta” soʻzi bilan aloqador boʻlib, ertagi, ilgarigi boʻlib oʻtgan voqealar maʼnosini beradi”, deb koʻrsatadi¹⁰.

Tahlil va natijalar. Ertak terminining izohi yuqorida turlicha talqin qilinganligi koʻzga tashlanadi. Shuni unutmaslik kerakki, ushbu fikrlarni bogʻlab

⁸ Мадаев О. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2013. – Б. 108.

⁹ Navola quyidagi manbadan olindi: Исраилова С. Замонавий тилшуносликда халқ эртақларини ўрганишнинг лингвокультурологик хусусиятлари. // Сўз санъати. – Тошкент, 2020. № 5. – Б. 232.

¹⁰ Рўзимбоев С., Рўзметов Х. Фольклор атамалари қисқача луғати. – Урганч, 2007. – Б. 52.

turuvchi *“bayon qilmoq”, “hikoya qilmoq”* birikmalari ertak terminini yuzaga kelishida muhim vosita hisoblanadi.

Xalq ertaklari tiliga e’tibor berar ekanmiz, unda o‘zbek tilining imkoniyati keng ekanligi ko‘zga tashlanadi. Ertaklarning lingvistik tadqiqi ertak tilida mavjud urf-odat, xalqimizga xos mentalitetni ifodalovchi unsurlarning ko‘pligi bilan ahamiyatlidir. Jumladan, o‘zbek xalq ertaklari tilida qo‘llangan gaplarning strukturasi e’tibor qaratilar ekan, unda aytuvchi (ertakchi)ning ham mahorati, nutqi, xalqning milliy-madaniyatidan xabardorligi talab etiladi. Xalq ertaklarimizning gap qurilishiga e’tibor qaratilsa, hayotiy-maishiy ertaklarda aksariyat hollarda qo‘shma gaplardan, aralash murakkab qo‘shma gaplardan ko‘proq foydalanish holatlari kuzatiladi. Hayvonlar haqidagi ertaklarda esa *sodda* va *uyushiq bo‘lakli gaplar* yetakchilik qiladi.

Ertak – xalq milliy-madaniyatini aks ettiruvchi o‘ziga xos folklor janri hisoblanib, lingvistik nuqtayi nazardan an’anaviy formulalarning ko‘pligi bilan ajralib turadi. Ertak janri asrlar davomida og‘izdan og‘izga o‘tish natijasida o‘zgaruvchanlik xususiyatlariga ham ega bo‘ladi. Ushbu janr asrlar davomida o‘zgarish xususiyatiga ega bo‘lsa-da, unda xalq mentaliteti bilan bog‘liq bo‘lgan qarashlarni epitetlar, metaforalar, giperbola, o‘xshatish va qiyoslar, takrorlar orqali ko‘rsatib beriladi. Xususan, ertaklar tilida mavjud *“oltindek o‘g‘il”, “boldek erimoq”, “toshday zirillamoq”, “uchar qushday pirillamoq”, “muzday qotmoq”, “shamday qotmoq”, “na’ra kabi o‘tinchlar”, “g‘ordek og‘iz”, “naqsh olmaday yuz”, “kalladay qulf”, “mumdek erimoq”, “ozod, hur, go‘zal hayot”, “qo‘lidagi hassasidan burni uzun”, “qorong‘i zulmat”, “yorug‘ nur”, “g‘am loyi”, “shodlik to‘yi”, “qora zulmat”, “umidsiz dovdirash”* kabi o‘ziga xos birliklar ertak janrining til imkoniyatlari kengligini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq ertaklarida badiiy uslubga xos xususiyatlar, shuningdek, ushbu janrning ko‘proq bolalar uchun xoslanganligi uchun so‘zlashuv uslubiga xos unsurlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, *hezlamok, shoti, ena, govgum (govgun), sho‘x-sho‘tanoq, badar, kadi, bikach, keli, kelisop, qoqshov, bachcha*

kabi dialektlar, *kosagul, chora* (yog‘och tovoq), *botmon* (ertak tilida sath o‘lchovi), *kamand* kabi ko‘plab tarixiy leksemalardan keng foydalanilgan. Bu esa ma’lum bir hududning koloritini ta’minlaydi. Bundan tashqari xalq ertaklarimizda o‘zbek xalqi milliy-madaniyatini namoyon qiluvchi *dasturxon, atlas, paranji, supa, xurjun, oftoba* kabi realiyalar, *yasovul, polov, atala, chopon, do‘ppi, navro‘z* kabi ekzotizmlar ko‘plab qo‘llanilgan¹¹. Bu esa yosh avlodni xalqimizga xos milliy-mental xususiyatlari bilan tanishtirish, o‘zbek xalqiga xos etnomadaniy stereotiplarni singdirishda ertaklar asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ertak boshlanmasidagi “*Bir bor ekan, bir yo‘q ekan*”, tugallanmasidagi “*murod maqsadiga yetibdi*” yoki “*oy desa og‘zi bor, kun desa ko‘zi bor*” kabi stereotipik matnlar asrlar osha xalqimiz lisoniy olamida yashab kelmoqda. Bundan tashqari, ertaklar tilida “o‘zbek xalqining milliy madaniyatini, ma’naviy qiyofasini, o‘ziga xos mentalitetini aks ettiruvchi leksik birliklar qo‘llanadi. Bunday birliklarda ifodalangan lug‘aviy ma’nodan tashqari faqat o‘zbek xalqiga tegishli bo‘lgan urf-odat, marosim, an’ana va qadriyatlar ham ifodalovchi so‘zlar”¹² – etnografizmlar ham talaygina. Etnogarfik xarakterga ega birliklarni tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, xalq hayoti haqida xabar beruvchi, milliy-madaniy xususiyatlarni o‘zida namoyon qilgan xalq ertaklarini tilshunoslik nuqtayi nazardan tadqiq qilish muhim. Chunki ertak janrida xalq hayotini hikoya qiluvchi lingvomadaniy unsurlar talaygina. Bu esa ertak matni tahlili asosida har bir xalqqa xos milliy-madaniy xususiyatlarning tarixini bilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдурахимова Д.А. Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни ахлоқий руҳда тарбиялашда халқ эртақларидан фойдаланиш. Пед.фан.номз...дисс. – Тошкент, 1998. – Б. 11.

¹¹ Bozorov H. O‘zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Termiz, 2023. – B. 43.

¹² Bozorov H. USAGE OF SOME ETHNOGRAPHISM IN UZBEK FOLK-TALES // European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 3 No. 07, July 2022. – P. 29.

2. Исраилова С. Замонавий тилшуносликда халқ эртакларини ўрганишнинг лингвокультурологик хусусиятлари. // Сўз санъати. – Тошкент, 2020. № 5. – Б. 232.
3. Мадаев О. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2013. – Б. 108.
4. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит-турк. 1-том. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 98.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. I жилд. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 469.
6. Рўзимбоев С., Рўзметов Ҳ. Фольклор атамалари қисқача луғати. – Урганч, 2007. – Б. 52.
7. Bozorov H. USAGE OF SOME ETHNOGRAPHISM IN UZBEK FOLK-TALES // European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 3 No. 07, July 2022. – P. 29.
8. Bozorov H. O‘zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Termiz, 2023. – B. 43.
9. Mirzayev T. va boshqalar. Ko‘rsatilgan manba: – B. 141.
10. OIД, O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDA HUNARMANDCHILIKKA, and E. T. N. O. G. R. A. F. I. Z. M. L. A. R. N. I. N. G. QO‘LLANISHI. "Cultural sciences." *BBC 4* (2023): 25.. *BBC*, 4, 25.